

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI O'YIN VA MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH

Ergasheva Barchinoy Abduqodir qizi

Samarqand viloyati Urgut tumani

Maktabgacha va maktab ta'limi bulimiga qarashli 5-son DMTT

Annotatsiya: *Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bolalarda maktabda muvaffaqiyatli bilim olishi, yangi muhitga moslashuv ko'nikmalari rivojlantiriladi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy jarayonni o'yin orqali olib borish metodlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, o'yin texnologiyasi, rivojlantiruvchi o'yinlar.*

Abstract. *As is known, the main activity of preschool children is play. Through play, children develop the skills of successful learning at school and adaptation to a new environment. This article discusses the methods of conducting the educational process through play in preschool educational organizations.*

Keywords: *preschool education, game technology, developmental games.*

Maktabgacha davrda bolalar juda ko'p narsani o'zlashtirishi mumkin ekanligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Ammo bolaning imkoniyatlari cheksiz emas, bola imkoniyatlari yosh va psixofiziologik xususiyatlar bilan chegaralangan. Bola marjonlarni ipga terib, ularni katta-kichikligi bo'yicha ajratib, o'lcham haqida tushunchaga ega bo'layotganligini yoki o'yinchoq mashinani belgilangan yo'lga bo'yicha yurgizib, fazoviy tafakkurni o'zi bilmagan holda rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixolog tomonidan o'tkaziladigan mashg'ulotlar rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi kerak. Rivojlantiruvchi o'yin va mashg'ulotlarning mazmuni bolaning psixik rivojlanishini oldinga surish, uning idroki, diqqati, xotirasi, tafakkuri, nutqi, xarakter sohasi, ixtiyoriy xulq-atvori, ya'ni bola tomonidan asl o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish asosini tashkil etadigan psixik funksiyalar va shaxsiy sifatlarni takomillashtirishdir.

O'yinlar bolada maqsadga yo'naltirilgan eshitish idroki, xotira, diqqatni rivojlantirishga ko'maklashmog'i kerak. 3-4 yoshli bolalar uchun o'yin va mashg'ulotlarni tanlash qiziqarlilik, soddalik, tashkil etish qulayligi tamoyili asosiga quriladi. 2-3 yoshli bolalar bilan o'yinlar ota-onalar yoki tarbiyachilardan qandaydir alohida bilim yoki kuch talab etmaydi, material vazifasini istalgan uydagi mavjud narsalar, odatda har bir bolaga sotib olinadigan oddiy o'yinchoqlar bajara oladi. Bu yoshdagi bolalar uchun maxsus rivojlantiruvchi o'yinchoqlar ko'p emas, kubiklar, mozaikalar, hisob tayoqchalari, magnitli alifbo, qirqma rasmlar. Ularning ko'pchiligi ko'pfunksional bo'lib, bir yo'la bir necha psixik funksiyalar rivojiga ko'maklashadi. 4-5 yoshli bolalar diqqatning ko'proq barqarorligi, xotirasi jadal rivojlanishi, lug'at boyligi faol o'sishi, nutqi, faoliyatni rejalash va tashkil etish funksiyasini egallashi bilan ajralib turadi. Bu yoshda tafakkur jadal rivojlanadi: tashqi belgilariga ko'ra umumlashtirish bilan bir qatorda bolalar buyumlarni sifati, vazifasi, ular bilan ishlash usuliga ko'ra birlashtira boshlaydi. Ular o'ziga tanish vaziyatlarda sabab oqibat aloqalarini o'rnatishga qodir.

Bolaning jismoniy rivojlanishi, qo'lning nozik motorikasi, rivojlanishi intensiv ravishda kechadi. Bu yoshda bola qalam, bo'yoq, plastilin, qaychi bilan yaxshi ishlay oladi. Bu predmetlar bilan harakatlari ancha ozoda, ancha aniq bo'la boradi.

5-6 yoshda bolaning bilimlar hajmi faol kengayadi, shu bois uning aqliy faoliyati, xarakteri ham o'zgaradi, u tushunish, faol tahlil va sin-tezga asoslanadi. Ko'rgazmali – obrazli tafakkur rivojlanishi bilan bir qatorda mantiqiy tafakkur ham shakllana boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan tahlil tobora detallashib, sintez yanada umumlashgan va aniq bo'la boradi

Bola endi atrofdagi predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni, u yoki bu hodisa sabablarini tushuna oladi.

6-7 yosh syujetli va rolli o'yin yuzaga keladigan va rivojlanadigan davr. Bu bosqichda yanada murakkab, jamoali turli psixik funksiyalar va shaxsiy sifatlar rivojlanishi, tengdoshlari bilan muloqot va hamkorlik malakalarini egallash, ixtiyoriylik rivojlanishiga ko'maklashuvchi o'yinlarni tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Maktabgacha katta yoshdagi bola xotirasi yanada barqaror bo'ladi. Uning xotirasi ko'proq bilvosita eslash xarakterini kasb etadi. Bola nutqi intensiv rivojlanadi, u lug'at boyligi ortishi va murakkab struk-turasi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yosh davri oxiriga kelib bola ixtiyoriy, ya'ni ongi boshqariladigan hulq-atvorga yetarli darajada qodir bo'ladi. Bola o'zi o'ylab topgan emas, balki tashqaridan berilgan alohida qoidalarga bo'ysunib harakatlanishga o'rganadi. Shu bilan birga bu yoshda bolalar hali hamon o'ta ta'sirchanligi, emotsionalligi, ancha tez toliqib qolishi bilan ajralib turadi. Shu bois rivojlantiruvchi o'yin va mashg'ulotlar bilan bir qatorda dam olish, keskinlikni yumshatishga qaratilgan o'yinlar o'ynaladi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi ishlar rejasini tuzar ekan bolaning turli yosh davrida rivojlanishining asosiy psixologik qonuniyatlarini bilishi va har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.R. Valiyeva Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati //Multi disciplinary research studies and education, Kuala Lumpur, Malasiya 2021
2. F.R. Valiyeva The importance of educational content in preparation of competative personnels// 2nd International Conference BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS San Francisco, USA February 28, 2018
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
4. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T.:2022
5. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Karimova N., A'zamova M. "Maktabgacha pedagogikasi" Darslik. Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. – 688 b.
6. Lazarev V. S., Potashnik M. M. Upravleniye razvitiyem shkolы. – M., 1995. – 441 s.
7. Potashnik M.M. Pedagogicheskoye tvorchestvo: problemy razvitiya i opyt. – Kiyev, 1988. – S. 65.